Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	



OLIIY TA'LIM XIZMATLARI MOHIYATI VA RIVOJLANISH NAZARIYASI

Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tayanch doktoranti
shaxboziskandarov022@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlarining nazariy asoslari uzoq muddatli yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada muallif tomonidan mavjud ta'riflar chuqur o'rganilib, ayrim kamchiliklari ko'rsatilib, takomillashtirilgan ta'rif ishlab chiqiladi. Tadqiqot davomida oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati keng yoritilib, bandlik, daromad, mehnat bozori kabi omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Tahliliy yondashuvlar asosida ushbu xizmatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, YAIM, bandlik, daromad, ish o'rinlari, raqobat, mehnat bozori, talab va taklif, resurslar.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of higher education services through a long-term analytical perspective. The author evaluates various existing definitions within this category, identifies key limitations, and proposes an improved conceptual framework. The socio-economic importance of higher education services is explored in detail, particularly in relation to employment, income generation, and labor market dynamics. The study also highlights their influence on macroeconomic indicators.

Key words: higher education services, socio-economic impact, GDP, employment, income, job creation, competition, labor market, demand and supply, resources.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы услуг высшего образования с позиции долгосрочного подхода. Автором проанализированы различные определения категории высшего образования, выявлены их недостатки и предложена усовершенствованная формулировка. Социально-экономическая значимость услуг высшего образования подробно раскрыта через такие факторы, как занятость, доход, рынок труда. Кроме того, представлена оценка влияния данных услуг на макроэкономические показатели.

Ключевые слова: услуги высшего образования, социально-экономическое влияние, ВВП, занятость, доход, рабочие места, конкуренция, рынок труда, спрос и предложение, ресурсы.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ta'lim sohasi hal qiluvchi omillardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Zamonaviy davlatlar taraqqiyot poygasida muvaffaqiyat qozonayotgan bo'lsa, bu – ularning ta'lim sohasini ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, mazkur sohani chuqur isloh qilgani bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, oliy ta'lim xizmatlari – jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri, inson kapitalini shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi. U milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarni yaratish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim sohasining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tarixiy jarayonlar mobaynida ham o'z aksini topgan. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari, shuningdek, "Qur'oni karim" va hadislarda ta'limning jamiyatdagi roli, ma'naviy kamolot va axloqiy tarbiyada tutgan o'rni chuqur tahlil etilgan. Inson faqat moddiy boylik va tabiat resurslari bilan emas, balki aqliy va kasbiy mehnati orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi. Demak, ta'lim insonni yaratuvchanlik va ijtimoiy faoliyatga yetaklaydigan asosiy omildir.

Oliy ta'lim xizmatlarining kelib chiqishi insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy bosqichlariga borib taqaladi. Qadimgi jamiyatda bilimli, tafakkuri chuqur va ishbilarmon shaxslar qabila yetakchilari bo'lgan. Arxeologik topilmalarda ushbu shaxslarning faoliyati tasvirlangan. Ularning jamiyatni boshqarishda, mehnat faoliyatini tashkil etishda, ov va himoya ishlarida faol qatnashgani, o'zgalaridan ajralib turgani ularning yuqori bilim va salohiyat egasi bo'lganidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy dalillar oliy ta'lim xizmatlarining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlari nazariy jihatdan chuqur o'rganilishi zarur. Chunki ushbu xizmatlarning rivoji – aholi bandligini ta'minlash, kamba'g'allikni qisqartirish, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish, resurslardan oqilona foydalanish kabi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimidir. Afsuski, hozirgi



kunda oliy ta'lim xizmatlari nazariyasi mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlari va bozor munosabatlari kontekstida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa sohaga tizimli yondashuvni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Oliy ta'lim xizmatlari” tushunchasining mazmunini talqin qilishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar “oliy ta'lim xizmatlari” tushunchasining mohiyatini emas, balki uning jamiyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy jihatlarini asoslab berishga e'tibor qaratgan. Masalan, T.N. Blinova va A.V. Fedotovlar oliy ta'lim xizmatlari barcha fuqarolar uchun tegishli bo'lib, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini baholashda quyidagi yondashuvlarga tayanganini ko'rsatadi: “...hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish; kompleks yondashuv (bu – tashkilotiy, hududiy, moliyaviy, narx va akademik jihatdan ochiqlikni ta'minlash); struktural yondashuv (oliy ta'limning barcha xizmat turlarini foydalanuvchilarga ko'rsatish); ehtimollik yondashuvi (kirish imkoniyati)” [1].

Shuningdek, E.N. Voronko oliy ta'lim xizmatlarini “mamlakatning iqtisodiy modeliga asoslangan faoliyat” [2] deb ta'riflagan. O.M. Vasjagina esa oliy ta'lim xizmatlarini iste'molchi va taklif etuvchilar o'rtasida shakllanadigan iqtisodiy faoliyat turi sifatida tasvirlab, quyidagicha ta'rif beradi: “Oliy ta'lim tizimi nomoddiy xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy institut hisoblanadi; uning mahsuloti ta'lim xizmatlari bozorida tovar ko'rinishida oldi-sotdi qilinadi” [3].

L.A. Krokmal oliy ta'lim xizmatlari rivojlanish nazariyasini chuqur tahlil qilib, ularning mohiyatini kengroq yoritish uchun bir necha asosiy kategoriya mavjudligini bildiradi. Uning fikricha, oliy ta'lim xizmatlari quyidagi uchta kategoriya orqali ifodalanadi: mehnat predmeti, mehnat vositalari va mehnat resurslari [4].

Mahalliy olimlar ham oliy ta'lim xizmatlari nazariyasini turli jihatlardan tahlil qilgan. Jumladan, M.Q. Pardayev ushbu xizmatlarni bilim oluvchi va bilim beruvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabat doirasida tushuntirib, “bilim va kuchlarni birlashtiruvchi faoliyat” sifatida izohlaydi [5]. P.M. Lutfullaev esa oliy ta'limda quyidagi uchta kategoriya mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: “xizmat ko'rsatuvchi”, “buyurtmachi” va “mijoz”. U bu kategoriyalar yig'indisini “manfaatdor guruhlar” deb atashni ma'qul topadi [6].

D.X. Aslanova va F.A. Ishankulova “Oliy ta'lim xizmatlari va ularning sifatini ta'minlash yo'llari” nomli maqolada ta'lim xizmatlarining sifatiga aniqlik berib, quyidagi fikrni bildiradilar: “...oliy ta'lim xizmati ko'rsatilishi natijasida faol, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etuvchi shaxs shakllanadi” [7]. O.S. Qahhorov oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash muammolarini tahlil qilib, oliy ta'lim xizmatlari tushunchasini raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayoni bilan bog'laydi [8].

Shuningdek, Sh.A. Qo'ldoshev inson taraqqiyoti konsepsiyasi nuqtai nazaridan oliy ta'lim xizmatlarini jamiyatning asosiy masalalarini hal etuvchi muhim tarkibiy qism sifatida baholaydi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim xizmatlarining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraktsiyalash, tahlil va sintez, induktsiya va deduktsiya, statistik guruhlash, monografik tadqiqot, taqqoslash kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim xizmatlari, ularning mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi fikr va mulohazalarni kengaytirish mumkin. Biroq mavjud nazariy qarashlardagi ilmiy asoslangan mulohazalarning ahamiyatini e'tirof etgan holda, oliy ta'lim xizmatlarini ish beruvchining talablari, ish haqi yoki faqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan emas, balki oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash muddati va bosqichlari nuqtai nazaridan baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Sababi, oliy malakali kadrlarni bir yoki ikki yil ichida tayyorlashning imkoni yo'q. Ba'zi ilmiy manbalarda ham quyidagi fikrga duch kelish mumkin: “...inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Bu missiya kompleks yondashuv va uzoq muddatli chora-tadbirlarni talab qiladi”.

Davlat ta'lim standartlarida belgilangan o'quv dasturlarida fanlarning o'zlashtirilish muddati katta ahamiyatga ega. O'quv rejalari va haftalik yuklamalar aynan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash jarayoniga xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta'lim xizmatlari tushunchasiga bu jarayonni aks ettiruvchi mazmun berilishi lozim. Oliy ta'lim xizmatlariga ta'lim muddati nuqtai nazaridan yondashish orqali bu sohaning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy o'rni va ahamiyati haqidagi qarashlarga aniqlik kiritish mumkin.

Bizning fikrimizcha, “oliy ta'lim xizmatlari” tushunchasining tub mohiyatini ochishda, unga ta'rif berishda, uning milliy iqtisodiyotdagi va aholi bandligini ta'minlashdagi rolini baholashda, aynan sifatli xizmat ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini oshirish nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mazkur mavzuga oid mavjud bahs-munozaralarga aniqlik kiritish imkonini beradi.

Shunga qaramay, yuqorida nomlari tilga olingan iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan “oliy ta'lim xizmatlari” tushunchasiga berilgan ta'riflarning birontasida ham kadrlar tayyorlash muddati va bosqichlari



alohida ko'rsatilmagan. Aksincha, mavjud adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim xizmatlarining mamlakatda ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifati va samaradorligini ta'minlashdagi roli haqida umumiy fikrlar ilgari surilgan, ammo ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi funksional o'rni to'liq tadqiq etilmagan.

Nazariy manbalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim xizmatlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni bo'yicha qarashlar turlicha, ba'zida esa bir-biridan keskin farq qiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu xizmatlarning faqat ayrim jihatlari, xususan xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Zamonaviy bosqichda oliy ta'lim xizmatlari birlamchi sektorning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. Uning roli faqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yoki xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bilan chegaralanmaydi. Oliy ta'lim xizmatlari eng avvalo aholining ma'naviy ehtiyojini qondirish, savodxonligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish, shuningdek, YaIM hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qo'shilgan qiymat yaratish, bozorga sifatli va xaridorgir mahsulot chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish – bularning barchasi aynan oliy ma'lumotli kadrlar salohiyati orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlayotgan xodimlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Oliy ta'lim xizmatlari aholi daromadlarini oshirishda, jinoyatchilik darajasini kamaytirishda, ayniqsa o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mulkni talon-taroj qilish, ma'naviy qadriyatlarining moddiy manfaatlar oldida ojizligi, korrupsiya kabi salbiy holatlarning oldini olishning yagona yo'li – aholining bilim darajasini oshirishdir.

Tadqiq etilgan ilmiy manbalarining ko'pchiligida oliy ta'lim xizmatlarining sifatli mahsulot ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar yaratish va aholining turmush darajasini belgilashdagi roli e'tirof etilgan. Olimlarning bu boradagi fikrlari bugungi real iqtisodiy sharoitda ham dolzargligicha qolmoqda.

1-jadval. Oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari.

№	Yo'nalishlar	Ta'sir doirasi va natijalari
1	Kadrlar salohiyati	Malakali va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish
2	Aholining ma'naviy saviyasini oshirish	Savodxonlikni yuksaltirish, intellektual taraqqiyotga yo'l ochish
3	Aholi bandligi	O'zini o'zi ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishda faol ishtirok
4	Kambag'allikni qisqartirish	Barqaror daromad manbaiga ega bo'lgan fuqarolar sonining ortishi
5	YaIMga qo'shgan hissasi	Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish orqali milliy iqtisodiyotga hissa
6	Tabiiy resurslardan foydalanish	Resurslarni tejash va "yashil" iqtisodiyotga o'tishga kadrlar orqali ko'mak
7	Ijtimoiy barqarorlik	Jinoyatchilikni kamaytirish, korrupsiya va isrofgarchilikka qarshi kurashish
8	Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish	Yangi texnologiyalarni joriy etish va ilm-fanga asoslangan yechimlarni ilgari surish

Mazkur funksiyalar orqali oliy ta'lim xizmatlari nafaqat ta'lim tizimi, balki mamlakat taraqqiyotining barqaror ustuni sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim xizmatlarining mohiyatini o'rganish va yuqorida ko'rib chiqilgan olimlarning ta'riflarini hisobga olgan holda, quyidagi ta'rifni taklif etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: oliy ta'lim xizmatlari – bu umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional ta'lim xizmatlaridan keyingi, kamida 4 yillik muddatda va ikki bosqich asosida oliy malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan umumiy iqtisodiy kategoriya sifatidagi iqtisodiy faoliyat turidir.

Oliy ta'lim xizmatlarining milliy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib borayotgani, uning aholi bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishdagi rolining ortib borayotgani bu sohani jadal rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi. Aynan ana shu zaruriyat oliy ta'lim xizmatlari sohasini strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilashni taqozo etadi. Uni amalga oshirish bo'yicha aniq choralar va yo'nalishlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim xizmatlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, uning mamlakat YaIMdagi ulushini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash oddiy bir tadbir emas, balki uzoq muddatga mo'ljallangan strategik taraqqiyotning muhim omilidir. Mazkur strategik maqsadni amalga oshirish,



avvalo, oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini chuqur ochib berish bilan chambarchas bog'liq.

Shu bilan birga, oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yuqorida ko'rsatilganlar bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu nazariy xulosamizni quyidagi asoslar bilan dalillaymiz:

Birinchidan, oliy ta'lim xizmatlaridan foydalangan shaxslar o'zini o'zi ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda O'zbekistonda ish o'rinlarining yetishmasligi, ish haqi va mehnat sharoitlarining talabga javob bermasligi mehnat resurslarini qoniqtirmaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekistonda 1,0 millionga yaqin bitiruvchi mehnat bozoriga kirib keladi [10]. Bunday raqobatli sharoitda barcha bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash imkoni mavjud emas. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda o'zini o'zi band qilish imkoniyatiga ega. Masalan: o'quv markazlari ochish, xizmat ko'rsatish faoliyatlari bilan shug'ullanish va boshqalar.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tejashda oliy ma'lumotli mutaxassislar muhim rol o'ynaydi. Tabiiy resurslarning ko'pligi yoki xilma-xilligi mamlakat taraqqiyotini kafolatlamaydi. Aksincha, resurslardan samarali foydalangan, atrof-muhitni muhofaza qilgan mamlakatlar rivojlanishning yuqori bosqichlariga erishgan. Bunga erishishning yagona yo'li – aholining savodxonligini oshirishdir. Demak, tabiiy resurslarni tejovchi iqtisodiyotga o'tish, tarmoqlarni "yashil transformatsiya" qilish va shu asosda oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunning muhim vazifasidir.

Uchinchidan, inflyatsiya darajasini pasaytirishda ham oliy ta'lim xizmatlari bilvosita ahamiyat kasb etadi. Aholi mablag'laridan maqsadli foydalanish – inflyatsiya sur'atlarini sekinlashtiradi. Masalan, kredit va soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish, ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish, xarid me'yoriga amal qilish va hokazolar. Garchi bu omillar alohida oddiy bo'lib tuyulsa-da, ularning yig'indisi iqtisodiyot uchun katta ichki investitsiyani tashkil etadi.

To'rtinchidan, aholining jamg'arma salohiyatini oshirishda oliy ta'lim xizmatlarining bevosita ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bor. So'nggi yillarda oila va jamoa tadbirlarida (to'ylar, marosimlar, tantanalar) haddan ortiq isrofgarchilik kuzatilmoqda. Bu esa aholining yillar davomida yig'gan daromadini bir kunlik tadbirga sarflab, moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga olib kelmoqda. Hatto to'y va marosimlarni soddaroq o'tkazish zarurati davlat siyosati darajasida ilgari surilgan.

Umuman olganda, oliy ta'lim xizmatlarining jadal rivojlanishi mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday jamiyatning tarixiy taraqqiyotiga nazar solinsa, ularning eng muhim maqsadi – fuqarolarini bilimli, madaniyatli va ongli etib tarbiyalash bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blinova T.N., Fedotov A.V. Dostupnost' uslug vysshego obrazovaniya: ponyatie i metodiki otsenki. Upravlencheskoe konsul'tirovanie, №12, 2018. S. 130–131.
2. Voronko E.N. Osobennosti obrazovatel'noy uslugi kak ob'ekta strategii regional'nogo vuza v ekonomike znaniy. Vesnik Grodnenskogo gosudarstvennogo universiteta im. Yanki Kupaly. Seriya 5. Ekonomika. Sotsiologiya. Biologiya, Tom 10, №2, 2020. ISSN 2221-5336. S. 17.
3. Vasjagina O.M. Spetsifika uslug vysshego obrazovaniya. Problemy sovremennoy ekonomiki.
4. Krokmal L.A. Spetsificheskie osobennosti obrazovatel'nykh uslug vysshego obrazovaniya i ikh kharakteristiki. Dal'nevostochnyy agrarnyy vestnik, 2016, №2(38). S. 115.
5. Pardayev M.Q., Ochilova H.N. Ta'lim xizmatlarini sifatini oshirishda sinergetik samara usullaridan foydalanish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va turizm, xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal, 2022 y., №5. B. 6.
6. Lutfullaev P.M. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim sifati: benchmarking, tyuning va diagnostika (Monografiya). – Namangan: NamDU, 2020. B. 12.
7. Aslanova D.X., Ishankulova F.A. Oliy ta'lim xizmatlari va ularning sifatini ta'minlash yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2023 y., №4. B. 210.
8. Qahhorov O.S. Oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr–dekabr, 2018-yil. B. 6.
9. Qo'ldoshev Sh.A. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning ahamiyati va tamoyillari. Zamonaviy ta'lim, 2022, №2. B. 36.
10. www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
